

## **BANKLARNING IQTISODIYOTDAGI RO‘LI VA UNGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR**

**Anvarov Asliddin Nabijon o‘g‘li**

“O‘ZMILLIYBANK” AJ

Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi

Davlat dasturlarini moliyalashtirish bo‘limi Bosh mutaxassisi

[Asliddinanvarov8@gmail.com](mailto:Asliddinanvarov8@gmail.com) +99890 607-22-30

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklarning iqtisodiyotdagi ro‘li va unga ta’sir qiluvchi omillarga bog‘liq bo‘lgan muhim jihatlar va ushbu mavzuning dolzarb masalalari keltirilgan. Bundan tashqari respublikamiz tijorat banklarining ba’zi faoliyat tahlili, kapitali miqdori va dinamikasi, ustav kapitalining o‘z mablag‘laridagi ulushi hamda ularning kapitallashuv darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar holati tahlil qilingan va xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tijorat banklari, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, kapitallashuv darjasasi, resurs baza, kapital, moliyaviy barqarorlik, ustav kapitali, subordinar qarz majburiyatları.

O‘zbekiston bank tizimida olib borilayotgan izchil va maqsadli islohotlar uning nafaqat jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta’siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalanishiga, balki banklar faoliyatida muhim va sifat o‘zgarishlarga erishish, iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmini kengaytirish hamda bank va moliya xizmatlarini ko‘rsatish darajasini tubdan yaxshilash imkonini berdi.<sup>1</sup>

Mamlakatimiz bank tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, uning jahon moliya bozoridagi nufuzi ortib borishi, shuningdek mamlakatimizni

<sup>1</sup> Salim Sobirovich Togayev “TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI” Iqtisodiyot va ta’lim / 2022-yil 1-son 40-b

modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, qator nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda. Bunda, ayniqsa, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar diqqatga sazovordir. Agar raqamlarga murojat qilsak, so'nggi 10 yil ichida bank tizimining umumiy kapitali 6 barobardan ziyodroqqa o'sdi. 2022 yilning o'zida tijorat banklari umumiy kapitali 32 foizga ko'paydi. Shuni takidlash joizki, respublikamizda yirik banklarning kapitallashuv darajasini oshirish ko'pgina xorij mamlakatlari amaliyoti bo'yicha asosan banklarning likvidlik ko'rsatkichini saqlab turishga emas, balki banklarning investitsiyaviy faolligini kuchaytirishga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish qaratildi.<sup>2</sup>

Tadqiqot jarayonida bank kreditlash xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish hamda bank xizmatlari tizimining yuqori darajada samaradorligini ta'minlash usullarini o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhash usullaridan foydalanildi hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik darajasi baholandi.

Mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo'g'inini esa uning bank va moliya tizimi tashkil etadi. Banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e'tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Binobarin, banklarning iqtisodiyotda tutgan roli ularning funksiyalari kabi ma'lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo'lgan, muhim operatsiyalarni bajaradi. Shu boisdan ham, banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, ular iqtisodiyotda alohida va yetakchi ahamiyat kasb etadi. Albatta, banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda ko'pqirrali bo'lib, ularning asosiyлari quyidagilardan iborat:<sup>3</sup>

<sup>2</sup> Shodmonov I.S."Bankning kredit siyosatini takomillashtirish". "Экономика и социум" №10(89) 2021. 268-b

<sup>3</sup> Nozima Alijon Qizi Ganiyeva TIJORAT BANKLARINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklarining-iqtisodiyotda-tutgan-o-rni-va-ahamiyati> (дата обращения: 12.05.2023).

1. Jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni tegishli shartlar asosida o'ziga jalgan etadi;
2. Qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoji mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga qaytarishlik, to'lovlik, muddatilik va ta'minlanganlik asosida mablag'lar beradi;
3. Milliy valyutaning emissiyasini tashkil etadi va uning barqarorligini ta'minlash doirasida pul – kredit siyosatini amalga oshiradi;
4. Pul aylanmasini tashkil etadi va uning tartibini belgilaydi;
5. Iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi sub'ektlar o'rtaida hisob – kitob va to'lovlarni amalga oshirishda vositchilik qiladi;
6. Bozor ishtirokchilariga turli darajadagi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshiradi;
7. Aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etadi. Banklarning iqtisodiyotdagi rolining asosiy jihatlaridan biri, jamiyatdagi
8. Vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Banklardagi kapitallar miqdori mo'tadil iqtisodiy barqarorlik va demografik ijtimoiy tabaqalashuvning iqtisodiy ta'minot, narx-navoga bog'liq parametrlarini tartibga solib turadi.

Banklarning iqtisodiyotda bajaradigan yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va davlat tashkilotlari o'rtaida amalga oshiriladigan hisob – kitoblarni tashkil etishi va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtaida har kuni bir necha yuz minglab pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. Bularning barchasi banklar tomonidan amalga oshiriladi va tartibga solib turiladi. Shu sababli ham banklar iqtisodiyotimizning yetakchi va asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

O'z navbatida, banklarning iqtisodiyotdagi rolini yuqori yoki pastligiga qator omillar ta'sir qiladi. Masalan: Aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchining

mustahkamligi. Xalqaro bank amaliyoti va mustaqillikdan keyin bosib o‘tilgan qisqa davrda yig‘ilgan tajribalarning natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotining asosiy o‘zagi asosan o‘zaro ishonch va halollikka tayanadi. Agar mazkur holatni aholi va mijozlarning banklarga bo‘lgan ishonchi yo‘qolishi bilan bog‘lab ko‘radigan bo‘lsak, banklarga nisbatan ishonch yo‘qolishi oqibatida ularning jamiyatdagi rolini pasayishiga olib keladi. Bu esa nafaqattijorat banklarining faoliyatiga balki iqtisodiyotda ularning tutgan o‘rnining pasayishiga ham olib kelishni mumkin.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini oshishi yoki pasayishiga nafaqat ularning sayi harakatlari, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darjasini va raqobatbardoshligi bevosita ta’sir qiladi. Chunki, banklar milliy iqtisodiyotdan ajralgan holda, alohida subyekt sifatida samarali faoliyat yuritishi mumkin emas. Chunki, ular iqtisodiyotning ajralmas va yaxlit eng asosiy qismi ya’ni tayanchi hisoblanadi. Masalan, banklarning asosiy faoliyat turlaridan biri muomalaga pulni emissiya qilishini oladigan bo‘lsak, muomalaga emissiya qilingan pul massasi tovar massasi bilan ta’milangan bo‘lishi lozim. Aks holda, milliy valyutaning inflyatsiya darjasini oshishi bilan birga, uning sotib olish qobiliyati pasayib ketadi. Demak, muomalaga emissiya qilingan pullar tegishli tovar massasi bilan ta’milangan bo‘lishi lozim.

Umuman olganda O‘zbekiston bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishini ta’minlab, yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayapti.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda bank-moliya tizimini shakllantirishda shu jumladan, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari, shuningdek, hukumat tomonidan mamlakat bank sektorini modernizatsiya qilish bo‘yicha qabul qilingan bir qator oqilonqa qarorlar o‘z taqbig‘ini topmog‘i lozim. Ana shundagina, banklar tijorat samaradorligini oshirish o‘rtalama uzoq muddatli strategiyani shakllantirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni, 2020 yil 12 may.

2. Чалдаева Л. А. Килячков А. А.. Рынок ценных бумаг [Электронный ресурс] : учебник для академического бакалавриата /— 5-е изд., перераб. и доп. —Москва : Юрайт, 2016. — Режим доступа <http://www.biblio-online.ru>

3. Nozima Alijon Qizi Ganiyeva TIJORAT BANKLARINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklarining-iqtisodiyotda-tutgan-o-rni-va-ahamiyati> (дата обращения: 12.05.2023).

4. Egamova M.E. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda daromadning roli. Iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). Dis. avtoreferati. – T.: TMI, 2019. – 28 b.

5. Kurbanov R.B., Khudoyberganova Z.Z. Matters of the increasement of private banks capitalization level. // Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. 2018. №. 6. S. 103-105.

6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

7. [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz)

8. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

9. [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz)

10. bank.uz